



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

B U Y R U G' I

**Raqamli texnologiyalar vazirligining Atamalar bo'yicha ishchi guruhi
faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida**

Raqamli texnologiyalar vazirligining Atamalar bo'yicha ishchi guruhi faoliyatini yo'lga qo'yish orqali raqamli texnologiyalar sohasiga oid yangi so'z va atamalarining o'zbekona muqobillari iste'molga kiritilishini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Raqamli texnologiyalar vazirligining Atamalar bo'yicha ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligining Atamalar bo'yicha ishchi guruhi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Raqamli texnologiyalar vazirligining Atamalar bo'yicha ishchi guruhining Reglamenti 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Atamalar bo'yicha ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilansin:

raqamli texnologiyalar sohasiga oid ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarining o'zbekona muqobillarini yaratish hamda ularni bir xilda qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

raqamli texnologiyalar sohasiga oid o'zbek tilida muqobilini yaratib bo'lmaydigan so'z va atamalarni o'zbek tili imlo qoidalari asosida bir xilda qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

raqamli texnologiyalar sohasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalaridagi tushuncha va atamalar turlicha izohlanishining oldini olish hamda qonunchilik hujjatlarida qabul qilingan ma'nosiga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlash choralari ko'rish;

raqamli texnologiyalar sohasiga oid ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlarda adabiy til qoidalari va me'yorlariga rioya etilishini ta'minlash;

o'zbek tiliga kirib kelayotgan raqamli texnologiyalar sohasiga oid yangi so'z va atamalarni qonunchilik hujjatlariga joriy etish va amalda qo'llash muammolarning yechimlari yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi tomonidan tasdiqlangan yangi so'z va atamalarining raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlarda bir xilda qo'llanilishini ta'minlash;

Raqamli texnologiyalar vazirligiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun kiritilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida ishlatilayotgan raqamli texnologiyalarga oid tushuncha va atamalarni amaldagi qonunchilik hujjatlari bilan bir xilda qo‘llanilishi yuzasidan tavsiyalar berish.

3. Ishchi guruh (O. Pekos) ishchi guruh faoliyatini va unga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishini tashkil etsin.

4. Belgilansinki:

“UNICON.UZ” MChJ qoshidagi Atamashunoslik va lug‘atlar xizmati Ishchi guruhning ishchi organi hisoblanadi;

“UNICON.UZ” MChJ direktori M. Maxmudov ishchi organ faoliyatini samarali tashkil etishga shaxsan mas’ul sanaladi.

5. Vazirlik tizimidagi agentlik, inspeksiya, aksiyadorlik kompaniyalari, jamiyatlari, korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari so‘rovga muvofiq o‘z korxona va tashkilotlari faoliyat yo‘nalishlariga oid so‘z va atamalarning ishchi organga 4-ilovaga muvofiq jadval asosida taqdim etilishini ta’minlab borsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.

Vazirning birinchi o‘rinbosari



O.Pekos